

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati yagona aksiyadorining 15-son qarori

2022-yil 5-avgust

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 38-uy.

KUN TARTIBI:

Jamiyatning ichki me‘yoriy hujjatlar loyihalarini ko‘rib chiqish:

- “Boshqaruv a‘zolarini mukofotlash to‘g‘risida”gi nizom yangi tahrirda;
- “Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risida”gi nizom yangi tahrirda;
- “Tarmoq ilmiy-texnik kengashini tuzish va faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizom yangi tahrirda.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **qaror qabul qilindi:**

1. Jamiyat “Boshqaruv a‘zolarini mukofotlash to‘g‘risida”gi nizom yangi tahrirda ushbu qarorning ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

2. Jamiyatning ijroiya organi (boshqaruvi)ga to‘lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdori “Boshqaruv a‘zolarini mukofotlash to‘g‘risida”gi nizomga asosan belgilansin.

3. Jamiyatning quyidagi ichki me‘yoriy hujjatlari:

- Jamiyat yagona aksiyadorining 2019-yil 29-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan jamiyatning “Boshqaruv a‘zolarini mukofotlash to‘g‘risida”gi nizomi;

- Jamiyat yagona aksiyadorining 2018-yil 11-maydagi qarori bilan tasdiqlangan “Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risida”gi nizomi;

- Jamiyat yagona aksiyadorining 2017-yil 1-maydagi qarori bilan tasdiqlangan hamda 2020 yil 31 martdagi qaroriga asosan tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan “Tarmoq ilmiy-texnik kengashini tuzish va faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomi o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

4. Jamiyat boshqaruv raisi (Mirzamahmudov):

- Jamiyatning “Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risida”gi hamda “Tarmoq ilmiy-texnik kengashini tuzish va faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomlarini tasdiqlash uchun jamiyat Kuzatuv kengashiga kiritilsin;

- yangi tasdiqlangan ichki hujjatlarni jamiyat faoliyatida tatbiq etilishini ta‘minlasin va ularga qat‘iy amal qilinishini nazoratga olsin.

Qaror rasmiylashtirilgan sana: 05.08.2022-yil